

ITALO KALVINONING “BENE COME IL SALE”
ERTAGINI TARJIMA QILISHDA YUZAGA KELGAN
LEKSIK VA SEMANTIK MUAMMOLAR

Keldiyorova Sevinch Jasur qizi ¹

¹ I O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2-kurs talabasi
Sevinchkeldiyorova2005@gmail.com

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:02.02.2025

Revised: 03.02.2025

Accepted:04.02.2025

KALIT SO'ZLAR:

Italo Kalvino,
tarjima, lingvistika,
leksika, semantika,
madaniyat, ekvivalent,
muammo

Ushbu tadqiqot Italo Kalvinoning “Bene come il sale” ertagini o‘zbek va rus tillariga tarjima qilish jarayonida uchragan lingvistik, semantik va madaniy qiyinchiliklarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Ertakda inson qadr-qimmatini va munosabatlar ramziy ifoda orqali tasvirlangan bo‘lib, undagi asosiy tushunchalar, masalan, “sale” (tuz), “candeliere” (shamdon) va “moine” (lutf) so‘zlarini tarjima qilish murakkab jarayonni talab qildi. Clifford Geertzning “thick description” usuli va Nida hamda Newmarkning tarjima nazariyalaridan foydalanilib, dinamik va formal ekvivalentlik yondashuvlari orqali ramziy tushunchalarni madaniy moslashtirishga e’tibor qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarjimada madaniy ramzlarni to‘g‘ri aks ettirish uchun izohli yondashuvlar ham samarali qo‘llanilgan.

KIRISH. Italo Kalvino italyan xalq ertaklarining o‘ziga xos ramziy va ma’naviy jihatlari saqlab qolgan holda ularni zamonaviy uslubda qayta ishlagan muallif sifatida mashhurdir. Uning folklor asarlarida madaniyatlararo qadriyatlar o‘z aksini topadi. Masalan: “Bene come il sale” (Tuzdek aziz bo‘lmoq) ertagi italyan xalqining eng yorqin ertaklaridan biri bo‘lib, nafaqat italyan madaniyatining boy ramzlarini, balki insoniyatning umumiy qadriyatlarini ham o‘zida mujassam etgan. Ushbu ertak inson qadr-qimmatini va munosabatlarning ahamiyatini ramziy ifoda orqali ochib beradi. Uning asosiy mazmuni insonning eng oddiy va keraksiz deb hisoblangan, lekin muhim narsalarga bo‘lgan ehtiyoji va ularsiz hayotning ma’nosiz ekanligini tushunishdan va borligida qadriga yetishdan iborat. Bu ertak, ayniqsa, o‘zbek va rus madaniyatlari uchun dolzarb bo‘lib, ularni italyan madaniyati bilan qiyoslash imkonini beradi. Sababi, italyan madaniyati o‘zbek hamda madaniyati bilan yetarlicha farqlarga ega. Bunga ko‘plab izohlarni keltirish mumkin: geografik joylashuvdagi farqlar, diniy farqlar, tarixiy farqlar shular jumlasidandir.

Yuqoridagi barcha farqlarni inobatga olib, mazkur ertakni italyan tilidan o‘zbek va rus tillariga tarjima qilish jarayonida lingvistik va madaniy tafovutlar bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Masalan, italyan tilidagi “*bene come il sale*” iborasining ramziy va ijtimoiy ahamiyati, “*candeliere*” ning yashirish va qutqarish ramzi sifatida qo‘llanilishi, “*moine*” ning yuzaki samimiyatni aks ettirishi, shuningdek, “*vino*” so‘zining italyan madaniyatidagi bayramlar, diniy qadriyatlar va quvonch ramzi sifatidagi o‘rni tarjima jarayonida izohli va moslashtirilgan yondashuvlardan foydalanishni talab qildi. “*Sale*” (tuz) so‘zi nafaqat moddiy element sifatida, balki chuqur ramziy ahamiyatga ega bo‘lib, italyan madaniyatida alohida rol o‘ynaydi. O‘zbek madaniyatiga begona bo‘lsa ham, ma’nosini to‘g‘ri tushuna olishimiz uchun “Nondek aziz bo‘lmoq” deb ishlatsak bo‘ladi. Ma’nosini o‘zbek va rus tillarida to‘g‘ri va aniq aks ettirish uchun Eugene Nida tomonidan taklif etilgan dinamik ekvivalentlik yondashuviga tayanish muhim bo‘ldi. Bu yondashuv orqali qabul qiluvchining hissiy javobini saqlab qolish maqsadida tarjimada ma’no markazli usullar qo‘llanildi. Shuningdek, italyan madaniyatiga xos bo‘lgan iboralarning o‘zbek va rus tillarida mantiqiy va hissiy jihatdan mosligini ta’minlash ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Italo Kalvinoning “*Bene come il sale*” ertagini o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga kelgan leksik va semantik qiyinchiliklarni tahlil qilishdir. Tarjima jarayonida rus tili bilan qiyoslash orqali italyan tili ramzlarini chuqurroq o‘rganish va tarjima nazariyasining turli yondashuvlarini amaliy qo‘llash ko‘zda tutilgan. Italyan, rus va o‘zbek madaniyatlarida aks etgan qadriyatlarni qiyoslash orqali lingvistik va madaniy moslashuvning o‘ziga xos jihatlarini ochib berish rejalashtirilgan.

Ushbu tadqiqot lingvistika, tarjima nazariyasi va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalariga o‘z hissasini qo‘shishi mumkin. Unda qiyosiy lingvistika, semantik tahlil va madaniy moslashuv usullaridan foydalanilgan bo‘lib, bu yondashuvlar madaniyatlarni o‘zaro solishtirish va chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Maqola Italo Kalvinoning folklorga asoslangan asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish orqali, o‘zbek tilidagi folklor tadqiqotlariga yangi yondashuv qo‘shadi. Hozirgacha Kalvino asarlarining o‘zbek tilidagi tarjimalari chuqur ilmiy tahlil qilinmaganligi sababli, ushbu maqola shu sohada ilk qadamlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqot orqali, Italo Kalvinoning ertagidagi ramziy ma’nolarni o‘rganish, tarjimada yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga qaratilgan yondashuvlarni shakllantirish maqsad qilingan.

METODOLOGIYA

Italo Kalvinoning “*Bene come il sale*” (Tuzdek aziz bo‘lmoq) ertagini o‘zbek va rus tillariga tarjima qilish jarayonida lingvistik, semantik va madaniy farqlar muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot uchun asos bo‘lgan ilmiy adabiyotlar va ulardan foydalanish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, leksik birliklar, frazeologizmlar va ramziy tushunchalarni tarjima qilishda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

Mazkur tadqiqotning nazariy asosini Clifford Geertzning *“The Interpretation of Cultures” asari tashkil etdi*. Geertz tomonidan ishlab chiqilgan *“thick description”* (kontekstual tasvirlash) yondashuvi madaniy belgilarning asl ma’nosini ochib berishda samarali bo’ldi. Geertzga ko’ra, madaniyatni tushunish uchun har bir ramziy tushunchaning hissiy va ijtimoiy kontekstini hisobga olish zarur. Masalan, Italo Kalvinoning *“Bene come il sale”* ertagida tuz inson hayoti va madaniy qadriyatlarining ajralmas qismi sifatida ko’rsatilgan. Sababi, Italiya tarixi, madaniyati va oshxonasida tuzning o’rni juda ahamiyatlidir.¹ Bundan tashqari bu ramz italyan madaniyatida inson qadriyatlarini ifodalaydi, lekin o’zbek tilida *“tuz”* so’zining bunday ma’nolari ko’p ishlatilmaydi.

Simon Susen esa o’zining maqolasida zamonaviy sotsiologik kontekstda Clifford Geertzning yondashuvlarini kengaytiradi va madaniy belgilarni talqin qilishda yangi qirralarni ochib beradi. Susen Geertzning yuqorida aytib o’tilgan usuliga tayangan holda, madaniyatni semiotik tizim sifatida talqin qiladi va madaniy belgilarni faqat lingvistik jihatdan emas, balki ularning ijtimoiy va hissiy tomonlarini ham hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi.²

Mazkur yondashuv Italo Kalvinoning *“Bene come il sale”* ertagidagi *“moine”* (lutflar) kabi madaniy jihatdan murakkab tushunchalarni tarjima qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. *“Moine”* so’zi italyan tilida odamning soxta va yuzaki ko’ngil olish harakatlarini ifodalasa, rus va o’zbek tillarida bu kabi semantik va hissiy yukni to’liq ifodalovchi ekvivalent mavjud emas. Shu sababli, mazkur so’zni tarjima qilishda madaniy moslashuv tamoyillariga e’tibor qaratish lozim.

Misol tariqasida oladigan bo’lsak, ertakda podshohning qizlari otalarining g’azabini yumshatish uchun ataylab o’zlarini yaxshi ko’rsatishga urinadilar va bu harakatlari *“moine”* iborasi bilan ifodalanadi.

Simon Susenning madaniy moslashuv nazariyasi bo’yicha tavsiyalariga ko’ra, so’zning lingvistik ma’nosidan tashqari, ijtimoiy va hissiy kontekstini ham hisobga olish lozim. Shu sababli, *“moine”* so’zining semantik yukini saqlash uchun italyan madaniyatidagi *“soxta lutf ko’rsatish”* tushunchasi o’zbekcha *“ko’nglini olish”* iborasi bilan ifodalandi. Bu nafaqat tarjimaning mazmunini aniqroq yetkazishga yordam beradi, balki o’zbek o’quvchisiga ham ushbu ramziy harakatning mohiyatini tushunish imkonini beradi.

Shuningdek Nida va Newmark tomonidan ishlab chiqilgan dinamik va formal ekvivalentlik yondashuvlari tarjima jarayonida asosiy yo’nalish sifatida tanlandi. Formal ekvivalentlikda matnning asl shakli, ya’ni so’zning lug’aviy ma’nosi va grammatik tuzilishi iloji boricha saqlansa, dinamik ekvivalentlikda esa mazmun va hissiy ta’sirni tarjima qilinayotgan tilga moslashtirishga e’tibor qaratiladi.³ Italo Kalvinoning *“Bene come il sale”*

¹ Kurlansky, M. (2002). *Salt: A World History*. New York, NY: Walker and Company

² Susen, S. (2024). *The Interpretation of Cultures. Geertz Is Still in Town. Sociologica – International Journal for Sociological Debate*, 18(1), 25–63.

³ Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. New York: Prentice-Hall International.

ertagida uchraydigan “*candeliere*” (shamdon) so‘zi shu yondashuvlar doirasida tahlil qilindi. Ertakda “*candeliere*” tushunchasi oddiy fizik buyum sifatida emas, balki qutqaruv va yashirish ramzi sifatida tasvirlangan. Bu tushuncha italyan madaniyatida og‘zaki ijod va ramzlarning chuqur ma’nosini aks ettiradi. “Candeliere” so‘zining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti rus tilida “*подсвечник*”, o‘zbek tilida esa “*shamdon*” deb tarjima qilingan. Biroq, ushbu yondashuv ramziy ma’noni to‘liq aks ettira olmadi. Shu sababli, shamdonning “yashirinish vositasi” sifatidagi ramziy ahamiyati o‘zbekcha va ruscha tarjimada izohli yondashuv orqali izohlangan.

Natijada, Nida va Newmarkning dinamik ekvivalentlik yondashuvi madaniy ramzlarning ma’nosini hissiy va semantik jihatdan moslashtirish uchun eng samarali usul bo‘ldi. Bu, ayniqsa, “*moine*” va “*candeliere*” so‘zlarida ko‘zga tashlanadi. O‘zbek va rus tillarida bu so‘zlarni izohli va moslashtirilgan tarzda tarjima qilish o‘quvchiga italyan madaniyatining semantik qatlamlarini yetkazishga imkon berdi.

NATIJALAR

Ushbu tadqiqot davomida Italo Kalvinoning “*Bene come il sale*” ertagini o‘zbek va rus tillariga tarjima qilish jarayonida uchragan leksik, semantik va madaniy qiyinchiliklar aniqlanib, ularning samarali yechimlari ishlab chiqildi. Tarjima jarayonida Geertzning “*thick description*” yondashuvi, Nida va Newmarkning dinamik va formal ekvivalentlik nazariyalari asosida amaliy usullar qo‘llanildi. Tadqiqot natijariga ko‘ra ramziy tushunchalarni tarjima qilishda yuzaga kelgan qiyinchiliklar va ularning yechimlariga quyidagilardan iborat:

“*Sale*” (tuz):

Italyan madaniyatida tuz hayotiy zaruratni, inson qadriyatlarini va ertakda insoniy munosabatlardagi sof tuyg‘ularni ifodalaydi. Bu so‘z nafaqat moddiy element sifatida, balki chuqur ramziy ma’noni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Tarjima jarayonida o‘zbek va rus tillarida ushbu so‘zning ma’nosini izchil yetkazishda qiyinchiliklar kuzatildi:

O‘zbek tilida: Bu so‘zning italyan madaniyatidagi ramziy yukini to‘liq aks ettirish uchun “hayotiy zarurat” kabi izohli yondashuv tanlandi. Shu bilan birga, kontekstual izohlar orqali o‘quvchilarga italyan madaniyatining ushbu jihatlarini tushunishga yordam berildi:

“ – Qanchalik yaxshi ko‘rasan?

– Hayotimiz uchun zarur bo‘lgan, tuzni yaxshi ko‘rgandek yaxshi ko‘raman.”

Rus tilida: “*sale*” so‘zi oddiy ramziy ma’nosi saqlanib tarjima qilingan, ammo madaniy kontekstni izohli yondashuv bilan boyitilmagan. Natijada, rus o‘quvchilariga italyan madaniyatining hissiy jihatlarini chuqurroq tushuntirish qiyinlashgan bo‘lishi mumkin:

“ — Как же ты меня любишь?

— Как соль.”

“*Moine*” (lutf):

Italyan madaniyatida “*moine*” so‘zi insonning soxta samimiyligini, ya’ni ichki niyati va

tashqi harakati o'rtasidagi nomutanosiblikni ifodalaydi. Bu so'z o'zbek va rus tillarida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti yo'qligi sababli tarjimada qo'shimcha qiyinchiliklar yuzaga keldi:

“Esse presero a girargli intorno e a fargli moine”

Ushbu jumlada *“moine”* so'zi samimiy bo'lmagan harakatlarni anglatar ekan, rus tilida tarjimada *“ластиться”* so'zidan foydalanilgan:

“Они давай возле отца вертеться да ластиться к нему.”⁴

“Moine” so'zini *“ластиться”* orqali qisman ifodalab, bu iboraning italyan madaniy kontekstidagi hissiy va semantik yukini aks ettira oldi.

O'zbek tilida esa *“ko'nglini olishga harakat qilish”* kabi ibora tanlandi: *“Katta qizi otasi atrofida aylanib, uni ko'nglini olishga harakat qildi.”*

Tarjima jarayonida, bu italyancha tushunchaning asosiy ma'nosini tushuntirish uchun izohli yondashuvni talab qildi. Bu yondashuv o'zbek o'quvchisi uchun samimiy bo'lmagan harakatning mohiyatini tushuntirishda samarali bo'ldi.

“Candeliere”

(shamdon):

Italyan madaniyatida *“candeliere”* nafaqat oddiy fizik buyum sifatida, balki yashirish va qutqarish ramzi sifatida ham ko'rinadi. Tarjimada ushbu ramziy ma'noni saqlab qolish jiddiy qiyinchilik tug'dirdi: Bu tushuncha italyan madaniyatida og'zaki ijod va tarixiy ramzlarning chuqur ma'nosini aks ettiradi:

“Nella Reggia c'era un candeliere d'argento così grande, che Zizola - così si chiamava la figlia più piccina - ci poteva star dentro, e la Regina ce la nascose.”

“Во дворце был серебряный подсвечник, такой большой, что Циццола — так звали младшую принцессу — могла в нем спрятаться.”

“Saroyda katta kumush shamdon bor edi, shunday kattaki, kichik qizi – Zizola shamdon ichida yashirina olardi. Podshohning xotini qizini o'sha shamdon ichiga yashirdi”

O'zbek tilida: *“Shamdon”* so'zi orqali buyumning nomini to'g'ridan-to'g'ri aks ettirish mumkin bo'lsa-da, uning italyan madaniyatidagi shakli, ya'ni yashirish va qutqarish ramzi sifatidagi ahamiyatini to'liq ifodalash uchun izohli yondashuv qo'llanildi Sababi o'zbek madaniyati va tarixida odatda shamdonlar inson sig'imidek katta bo'lmaydi.

Formal yondashuv, ayniqsa, *“vino”* tushunchasini o'zbek va rus madaniyatlarida moslashtirishda ham muhim rol o'ynadi. *Vino* italyan madaniyatida bayram, hayot nektari va diniy marosimlar ramzi sifatida ko'rsatilgan bo'lsa, o'zbek va rus tillarida bunday hissiy yukni ifodalashning imkoni yo'q. Madaniyatlar o'rtasidagi tafovut o'quvchilar o'rtasida ba'zi bir tushunmovchiliklarni keltirib chiqarsa-da, *“vino”* so'zi o'zgartirishsiz qoldirildi.

Formal ekvivalent yondashuviga tayangan holda, italyan madaniyatining muhim elementlarini o'zbek va rus o'quvchilariga tushunarli va haqqoniy yetkazishga xizmat qildi. Ushbu yondashuv tilning hissiy va madaniy kontekstlarini hisobga olishda muhim rol

⁴ Кальвино, И. (2010). *Итальянские сказки.*

o‘ynadi. Bundan tashqari, “vino” so‘zi ko‘pincha xalqaro atama sifatida qabul qilinadi. Shu bois, uni tarjima qilmaslik tushunarsizlikni keltirib chiqarmaydi, aksincha, italyan madaniyatiga xos bo‘lgan qirralarni o‘z holicha aks ettirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, italyan madaniyatiga xos bo‘lgan elementlarni saqlash orqali o‘quvchiga matnni chuqurroq anglash imkonini yaratdi.

Tarjima qilish jarayoniga keladigan bo‘lsak, dinamik ekvivalentlik, formal ekvivalentlik va izohli yondashuvlar birgalikda qo‘llanildi. Ushbu yondashuvlarning har biri o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega bo‘lib, ular tarjimaning turli jihatlarini aks ettirishda turlicha ta‘sir ko‘rsatdi.

Dinamik ekvivalentlik yondashuvi italyan madaniyati va hissiy jihatlarini o‘zbek va rus o‘quvchilariga tushunarli shaklda yetkazishda muhim rol o‘ynadi. Masalan, “*sale*” so‘zi “hayotiy zarurat” kabi qo‘shimcha izoh bilan aks ettirildi. Bu yondashuv italyan madaniyatining nozik jihatlarini o‘quvchiga tushunarli qilish imkonini berdi. Biroq, bu usulda ba‘zan asl matndagi ramziy qatlamlar va lingvistik shakllar yo‘qolishi mumkin. Misol uchun, “*moine*” so‘zi dinamik yondashuv yordamida “ko‘nglini olishga harakat qilish” deb tarjima qilindi va kontekstdagi hissiy yukni izoh orqali yetkazishda samarali bo‘ldi. Ammo, bu tarjima asl so‘zning qisqalik va poetik ohangini yo‘qotgan deyishimiz mumkin.

Formal ekvivalentlik yondashuvi so‘zma-so‘z tarjima qilishga asoslangan bo‘lib, matnning asl shaklini saqlashni maqsad qilgan. Bu usul italyan madaniyatining muhim unsurlarini o‘z holicha saqlashga yordam berdi va xalqaro atama sifatida qabul qilinuvchi so‘zlar o‘quvchiga tushunarli bo‘lishini ta‘minladi. Shu bilan birga, formal yondashuv madaniy kontekstni to‘liq tushuntira olmagan sababli o‘quvchilar uchun ayrim ramziy jihatlar yot bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Masalan, “vino”, italyan madaniyati hamda dinida muhim element bo‘lsada, bizda bu ichimlik sevgisining kuchliligini izohlashda to‘g‘ri kelmaydi.

Umuman olganda, qabul qilingan yondashuvlarning har biri tarjimada o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarni ko‘rsatdi. Dinamik yondashuv madaniy moslashuvni ta‘minlagan bo‘lsa, formal yondashuv asliyatni saqlashga yordam berdi, izohli yondashuv esa madaniy kontekstni tushuntirishda muhim rol o‘ynadi. Ushbu yondashuvlarning muvozanatli qo‘llanilishi tarjimada asosiy maqsadga — italyan madaniyatini o‘zbek va rus o‘quvchilariga tushunarli va haqqoniy yetkazishga erishishga yordam berdi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot Italo Kalvinoning “*Bene come il sale*” ertagini o‘zbek va rus tillariga tarjima qilish jarayonida yuzaga kelgan lingvistik, semantik va madaniy qiyinchiliklarni aniqlash va ularning yechimlarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Tadqiqot davomida tarjima nazariyasining dinamik va formal ekvivalentlik yondashuvlari, Clifford Geertzning “thick description” usuli, shuningdek, izohli tarjima metodlari qo‘llanilib, italyan

madaniyatining ramziy tushunchalarini boshqa tillarda to'g'ri aks ettirishga alohida e'tibor qaratildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, "Sale", "moine", "candeliere" va "vino" kabi ramziy tushunchalarni tarjima qilish jarayonida madaniy moslashtirish va asliyatni saqlash o'rtasidagi muvozanat juda muhim. Har bir yondashuvning afzallik va kamchiliklari aniqlandi. Dinamik ekvivalentlik yondashuvi madaniy moslashuvni ta'minlash va italyan madaniyatining nozik jihatlari boshqa tillarda tushunarli qilishda samarali bo'ldi. Biroq, bu yondashuv ayrim hollarda asl matndagi lingvistik shakl va poetik ohangni yo'qotdi. Formal ekvivalentlik yondashuvi so'zning asl shakli va lug'aviy ma'nosini saqlashda yordam berdi, ammo madaniy va hissiy kontekstni yetkazishda cheklovlarga ega bo'ldi. Izohli tarjima yondashuvi madaniy tafovutlarni tushuntirishda muhim rol o'ynadi, ammo o'quvchi uchun ortiqcha yuk bo'lishi mumkin.

Mazkur ilmiy ish, Italo Kalvinoning asarlarini o'zbek va rus tillariga tarjima qilishda yuzaga keladigan lingvistik va madaniy qiyinchiliklarni o'rganishda dastlabki qadam bo'lib, tarjima nazariyasi va madaniyatlararo kommunikatsiyaga muhim hissa qo'shadi. Ushbu tadqiqot davomida ishlab chiqilgan yondashuvlar, nafaqat Kalvino asarlarining tarjimasida, balki boshqa madaniyatlararo tarjimalarda ham qo'llanilishi mumkin. Tadqiqotning kelajakdagi yo'nalishlari o'zbek va rus o'quvchilari uchun italyan madaniyatining ramziy qatlamlarini yanada chuqurroq o'rganish va aks ettirishga qaratilishi mumkin. Shu bilan birga, izohli tarjima va madaniy moslashtirish o'rtasidagi muvozanatni yanada takomillashtirish muhim vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Calvino, I. (1956). *Fiabe Italiane*. Giulio Einaudi Editore.
2. Кальвино, И. (2010). *Итальянские сказки*
3. Kim, D. (2015). Dynamic equivalence: Nida's perspective and beyond. *Skase Journal of Translation and Interpretation*, 8(1), 60-75.
4. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. New York: Prentice-Hall International.
5. Susen, S. (2024). *The Interpretation of Cultures. Geertz Is Still in Town. Sociologica – International Journal for Sociological Debate*, 18(1), 25–63.
6. Kurlansky, M. (2002). *Salt: A World History*. New York, NY: Walker and Company
7. Geertz, C. (1973). *The Interpretation of Cultures: Selected Essays*. Basic Books.
8. Бархударов, Л. С. (1975). *Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода*
9. Комиссаров, В. Н. (1990). *Теория перевода (лингвистические аспекты)*. Москва: Высшая школа.
10. Ahrorova,, M. (2023). TARJIMA JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (23), 203-208.